



# Ilmiy tadqiqotlarni kompyuterda modellashtirish bo'yich seminar-trening

Fanlar akademiyasi U.A. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan fundamental loyiha doirasida joriy yilda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan kompyuterda modellashtirish maktabini shakllantirish maqsadida yetakchi olimlar ishtirokida seminar-trening (workshop) tashkil qilindi. Mazkur "Innovatsion ilmiy tadqiqotlarda kompyuter eksperimentining istiqbollari" mavzusidagi seminar-treningni o'tkazishdan asosiy maqsad ilmiy tadqiqotchilarda fizikaviy, kimyoiy va biologik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish orqali tadqiq qilish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Bu kabi seminarlar kelajakda tadqiqot institutlari hamda oliy o'quv yurtlarida dunyodagi ilg'or ilmiy markazlardagi kabi yuqori darajadagi hisoblash/modellashtirish muhitini yaratish imkonini beradi.





Ushbu seminar-treningda 40 yoshgacha bo'lgan yigirmaga yaqin yosh tadqiqotchilar tinglovchi sifatida ishtirok etmoqda. Tadbirni samarali o'tkazish uchun mahalliy ekspertlardan tashqari xorijiy ekspertlar ham jalg qilingan. Xususan, ushbu tadbirda Antverpen universiteti (Belgiya) yuqori samarali superkompyuter klasterlarida tadqiqotlar olib borish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha bosh mutaxassis Karel Venken ham asosiy ma'ruzachi sifatida ishtirok etmoqda.

Seminar-trening doirasida mahorat darslari ham rejalashtirilgan.